

O'QUVCHILAR BILIMIDAGI BO'SHLIQLARNI TO'LDIRISHDA UMUMLASHTIRUVCHI DARSLARNING AHAMIYATI

Suyarova Shohida Gaybullayevna

TXKU Samarqand Filyali

boshlang'ich ta'lim magistranti

Annotatsiya: Umumta'lim maktablarda o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va bartaraf etishda umumlashtiruvchi darslarning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ilmiy izlanishda umumlashtiruvchi darslarning mazmuni, vazifalari, ularni tashkil etish shakillar hamda o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan izlanishdagi samaradorkigi tahlil qilinadi. Shuningdek umumlashtiruvchi darslar orqali olayotgan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Umumlashtiruvchi dars, o'quvchilar bilimidagi bo'shliq, mustahkamlash, ta'lim samaradorligi.

Kirish: Juda tez rivojlanib borayotgan zamonaviy ta'lim tizimidagi o'quvchilarning bilim sifatini va barqarorligini taminlash mumkin vazifalardan biri hisoblanadi. O'quv jarayonida turli sabablar tufayli o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar yuzaga keladi. O'quvchilarning olayotgan bilim darajasi bir xil bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarning individual psixolik xususiyatlari, qiziqishlari bilish faoliyati faolligi hamda o'qitish metodlarning samaradorligi bilan chambarchas bogliq. Ushbu bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash bo'shliqlarni to'ldirishda umumlashtiruvchi darslar muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni quyidagi sabablar bilan boglash mumkin

- O'tilayotgan mavzularning murakkabligi
- individual o'zlashtirish darajasining pasligi
- Dars jarayonida malumotlar yetarli emaskigi
- O'quvchi o'z ustida ishlamaslik va dars tayyorlamasligi
- Ota onalar va o'qituvchi tomonidan nazorat qilmaslik

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar ko'pincha o'ziga ishonchsiz bo'ladi, ta'lim jarayonida sus faollik ko'rsatadi. Umumlashtiruvchi darslarni bunday o'quvchilar darsni juda asta va sekin tushunadi.

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun umumlashtiruvchi darslar alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Chunki bu darslarda mavzular soddalashtirilgan holda tushuntiriladi. O'tilayotgan mavzular o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchiga juda sodda va onson usulda tushuntiriladi. Har bir o'quvchi bilan individual shugullanadi. O'tilgan mavzuni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchidan alohida alohida so'raladi. Umumlashtiruvchi darslar

orqali o'qituvchi o'quvchilarning qaysi mavzularda qiynalayotganligini, qaysi tushunchalar yetarli darajada shakillanmaganligini aniqlaydi. O'qituvchi o'quvchini savol –javob, testlar, jadval va sxemalar bilan ishlash jarayonida bilimdagi bo'shliqlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Umumlashtiruvchi darslarning samaradorligini oshirish uchun quyudagi metodlardan foydalanish maqsadga mofiq bo'ladi.

- Klaster va konseptual xaritalar metodi
- Muommoli savollar metodi
- Kichik guruhlarda ishlash metodi
- Test va topshiriqlar metodi
- Jadval va sxemalar metodi

Shu metodlardan foydalanib o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan shugullansa yaxshi natija beradi.

Z.D.Novak amerikalik olim Konseptual xaritalar metodini ishlab chiqib ,bilimlarni vizual va tizimli shaklda ifodalash umumlashtiruvchi darslarning samaradorligini oshirishini ilmiy asoslab berdi.Bu chet el olimining fikricha konseptual xaritalar o'quvchining chuqur anglashiga xizmat qiladi deb fikr bildirib o'tgan,shu metodni umumta'lim maktablarda umumlashtiruvchi darslarda qo'llansa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Konseptual xaritalar metodida:

Bu tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy sabab-oqibat va o'rtasidagi bog'lanishlarni grafik shaklda ifodalovchi metoddir. Bu metod klaster metodidan farqli ravshda yanada tizimli va chuqur taxlilni talab qiladi. Konseptual xaritaning maqsadi;

- murakkab tushunchalarni saddalashtirib tushuntiradi.
- tushunchalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarni aniqlash
- erarxik tartibda joylashtirish
- olingan bilimlarni mustaxkamlash.

Konseptual xaritalarning ta'limdagi ahamiyati;

- o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish
- olingan bilimlarni chuqur anglashga yordam berish
- o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasini shakillantirish
- o'zlashtirishi past o'quvchilar uchun murkkab mavzularni

tushunarli qiladi.

Klaster metodi va konseptual xaritadan umumlashtiruvchi darsdan qaynday foydalanishni tushuntirib o'tamiz.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga qaratilgan interfaol metod bo'lib, unda asosiy tushuncha markazga joylashtiriladi va unga bog'liq bo'lgan tushunchalar tarmoqlar (shoxlar) orqali ifodalanadi.

Klaster metodining maqsadi.

O'quvchilarning mavzu bo'yicha dastlabki bilimlarini aniqlash, mustaqil va ijodiy fikrlarni rivojlantirish.

Umumlashtiruvchi darslarda muommoli savollar metodidan foydalanish

usullari.

O'quvchilarda muayyan muammo yoki qarma-qarshilikni yuzaga keltirish orqali ularni mustaqil fikrlarga taxlil qilish va xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi ta'lim metodidir.

Bu metod o'qituvchiga tayyor bilimni bermaydi, balki savollar orqali o'quvchini muommoni hal qilishga undaydi.

Muommoli savollar;

“Nima uchun?”

“Qanday qilib?”

“Nima kerak?”

“Nima bo'ladi?” kabi fikrlash jarayonlarini faollashtiradi.

Muommoli savollar metodining maqsadi;

- o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.
- Bilimlarni chuqur anglashga erishiladi.
- Bilimdagi bo'shliqlarni aniqlashtiradi
- O'quvchilarning mustaqil hulosani chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Muommoli savollar bir necha bosqichlarga bo'linadi.

- Muommoni yaratish
- Muommoli savol qo'yish
- Farazlar ilgari surish
- Taxlil va isbotlash
- Xulosa chiqarish.

O'quvchilar muammo yechimini o'zlari topadi va umumiy xulosaga keladi. Umumlashtiruvchi darslarda tilshunos olim G'.Abduraxmonov fikriga ko'ra ona tili ta'limida umumlashtiruvchi darslarning ahamiyatini alohida e'tirof etib, ular orqali nazariy bilimlarni amaliy nutq bilan bog'lash imkoniyatini kengaytirishni takedlab o'tadi.

Xulosa.

Umumlashtiruvchi darslar o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, ular bilimlarni tizimlashtirish mustaxkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda umumlashtiruvchi darslardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiradi. Ta'lim jarayoniga bunday darslarni muntazam joriy etish o'quvchilarning bilim darajasi va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABBIYOTLAR

1. Yo'ldoshev J.G Usmonov S.A
2. Pedagogik texnologiya asoslari Toshkent o'qituvchi 2018
3. Abduraxmonov G' hozirgi o'zbek adabiyoti (sintaksis) Toshkent o'qituvchi 2016
4. Azizxo'jayev N.N pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Toshkent-TDPU 2017